


O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur Uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil 14 avgust №MMO-51-2025 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2027 yil avgustgacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Ichka kasalliklar
O'quv dastur nomi	«Terapiyada tanlangan masalalar»
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Ibragimov A.Yu., Kayumov U.U., Soipova M.L.
Tsiklning umumiy soati	144 kredit

Tsiklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

 T.f.D., Ibragimov A.Yu.	 T.f.D, professor Qayumov U.K.	 T.f.n., dosent Kurbanova F.R.	 T.f.n., dosent Xatamova D.T.	 T.f.n., dosent Maksumova M.G.
 T.f.n., dosent Saipova M.L.	 T.f.n., dosent Musaeva Sh.Z.	 T.f.n., dosent Alimov U.S.	 PhD., assistant Usmanova D.U.	 Assistent Ziyamuxamedova M.M.
Maqsad		Terapevtik yo'nalishdagi bemorlarni yangi va zamonaviy tashxislash uslublari bilan tanishtirish va takomillashtirish. Terapiya yo'nalishidagi bemorlarni zamonaviy usullar bilan davolashda kasbiy mahoratni oshirish va malakani kuchaytirish. Terapevtik yo'nalishga ega bemorlarda birlamchi tibbiy yordam shifokorlarining kasbiy maxoratini xisobga olgan xolda terapiyada keng tarqalgan kasalliklarni aniqlash, kasbiy bilimlarni o'zlashtirish va yangilashdan iborat. Terapevtik bemolarga shifokor yakuniy tashxisini qo'yish, standart terapiyani tanlab, reabilitasiya muammolarini to'g'ri bajarishi uchun kasbiy bilimlarini, maxoratini uzluksiz oshirishi		

Tsiklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Respublika viloyat, shaxar, tuman shifoxonalari va poliklinikalari, kunduzgi stasionar, sanatoriy profilaktoriy, sanator-kurort va boshqa tibbiy muassasalar vrachlari, terapevtlar, UASH va barcha tor yo'nalish davolash vrachlari.
Tsikl vazifalari	Pulmonologiya yo'nalishida: O'pkaning o'tkir va surunkali kasalliklarining sababi, klinikasi, asoratlarning mavjudligini, shuningdek standart davolash va prognozini aniqlashda kasbiy bilimlarini mukammallashtirish va yangilashdan iborat. Revmatologik kasalliklarida: revmatologik kasallikning erta tashxisi bo'yicha bilimlarni yangilash, zamonaviy revmatik tadbirlarni joriy etish, kasallikning qaytalanishi va kuchayishini oldini olishda kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilashdan iborat. Kardiologiyada: Kardiologik kasalliklar (O'KS, AG, YUIK, Syue) da zamonaviy va JSSTning tasnifini o'rganish va davolash usullarini aniqlash. Yurak xuruj xolatida bemorlarda kasallikni erta aniqlash, birlamchi tez yordam o'tkazish va yurak reanimasiya bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish. Gastroenterologiya va gepatologiyada. Oshqozon va jigar kasalliklari bo'yicha tashxislash va davolash bo'yicha kasbiy mahoratni oshirish. Bemorlarni ambulator va stasionar sharoitda qabul qilish imkoniyatini aniqlash, kasallikning asoratlari borligi xaqida ogoxlantirish, to'g'ri tashxis qo'yish va farmakoterapiyasida bor bilimlarni amaliyotga tadbiq eta olish. Nefrologiya yo'nalishida. Bemorlarda buyrak kasallikning o'tkir va surunkali shakllarini erta aniqlash va davolash bo'yicha zamonaviy usullar bilan tanishtirish. Buyrak kasalligining klinik belgilarini aniq baholash, laboratoriya ko'rsatkichlarini baholash. Endokrinologiya yo'nalishida: Qalqonsimon bez kasalliklarini davolash va tashxislashda bemorlarga qo'llaniladigan zamonaviy davolash usullarini o'rgatish. Qalqonsimon bez kasalliklarda bemorlarni tashxisini va zamonaviy davolashni o'zlashtirish.

Tsikl tarkibi


1 modul. O'pka kasalliklar: zamonaviy klassifikatsiyalarni o'zlashtirish, differentsial davolashini o'tkazish.
2 modul. Yurak kasalliklari: yangi JSST tasnifi, bemorlarni olib borish, profilaktikani amalga oshirish.
3 modul. Biriktiruvchi to'qima diffuz kasalliklarida zamonaviy tashxislash, davolash uslublari.
4 modul. Oshqozon va jigar kasalliklariga yangicha yondashuv.
5 modul. Buyrak kasalliklari: bugun va kelgusidagi muammolari.
6 modul. Qalqonsimon bez kasalliklari zamonaviy muomallari.

O'qish bazalari

1. Ibn Sino nomidagi 1-sonli shahar klinik shifoxonasi



2. TXKMRRM ko'p tarmoqli shifoxonasi



Simulyasion asbob/uskunalar



